

PARRANDACHILIKDA SELEKSIYA VA NALSCHILIK ISHLARINI AHAMIYATI.

Soyibjonov Axmadillo Toxirjon o'g'li

Abduraximov Abbosbek Dilmurod o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishning o'sishi ko'p jihatdan yuqori mahsuldor liniyalar va krosslarni yaratish va ularni doimiy ravishda yaxshilash, shuningdek, to'liq va muvozanatli oziqlantirish va yangi resursni joriy etishga qaratilgan seleksiya tejamkor va samarali texnologiyalar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: naslchilik ishi, seleksiya, menejment, marketing, fiziologiya, parranda go'shti, tuxum, reproduksiya, inkubatsiya.

IMPORTANCE OF SELECTION AND BREEDING IN POULTRY FARMING.

Soyibjonov Akhmadillo Takhirjon *ugli, Assistant.*

Abdurakhimov Abbosbek Dilmurod *ugli, Assistant.*

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract: In this article, the growth of egg and poultry production is largely focused on the creation of high-yielding lines and crosses and their continuous improvement, as well as on the introduction of complete and balanced nutrition and new resource selection, economical and efficient technologies. held.

Key words: breeding, selection, management, marketing, physiology, poultry, eggs, reproduction, incubation.

Kirish. Naslchilik ishlari - bu yosh parrandalarni baholash, tanlash, saralash, juftlash, maqsadga muvofiq yo'naltirilgan holda boqish va ko'paytirish usullari, parrandalarni ratsional boqish va saqlash, naslchilik va xo'jalik hisobi, parrandalarni veterinariya-profilaktika ishlarini, shuningdek, tashkiliy-zootexnik, menejment, marketing, naslchilik ishlab chiqarishni sertifikatlash va h.k.tadbirlarning yagona tizimidir.

Adabiyotlar tahlili. Seleksiyaning fan sifatida paydo bo'lgan vaqti 1859-yil 24 -noyabr, evolyusiya haqidagi ta'limotni Charlz Darvin tomonidan yaratilgan vaqt hisoblanadi.

Odamlar chorvachilikda naslchilik ishi bilan uning biologik mohiyati haqida aniq g'oya va tushunchalar paydo bo'lishidan ancha oldin shug'ullana boshlaganlar,. Insonning uy hayvonlariga ongli va tizimli ta'siri qadimgi davrlarda - miloddan avvalgi 2 ming yillikda boshlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Muhokama. Organizmlarning belgilari va o'zgaruvchanligini meros qilib olish qonuniyatlarini o'rganish chatishish paytida parrandalarni maqsadli tanlash va tanlashga yordam beradi va seleksiya samaradorligini ta'minlaydi.

Parrandalarni yetishtirishda asosiy vazifa galaga xos mahsuldorlik darajasini saqlab qolish yoki uni sezilarli darajada oshirishdir. Shu bilan birga, seleksioner mavjud bo'lgan avlodlarni o'z vaqtida va ob'ektiv baholashi, galani ko'paytirish uchun eng yaxshi parrandani (eng yaxshi genotiplarni) tanlashi va eng yomonini (istalmagan genotiplarni) brak etishi kerak.

Bunday avlodlarni, bunday genotiplarni ajratib olish parrandachilik seleksiyasi da eng muhim usullardan biridir. Agar belgi bir yoki bir nechta gen bilan bog'liq bo'lsa (toj shakli, pat- parlar rangi, mittilik), unda kerakli avlodlarni tanlash juda soddalashadi. Agar belgi juda ko'p sonli genlarga bog'liq bo'lsa (tana vazni, tuxum vazni, tuxum ishlab chiqarish, mahsuldorlik, inkubatsiya qobiliyati va boshqalar), unda tanlash juda qiyin. Naslchilikning muvaffaqiyati nafaqat parranda go'shtini baholash va tanlash usullariga, balki yaxshilangan mahsuldorlik va naslchilik fazilatlariga ega bo'lgan yangi genotiplarni yaratishga imkon beradigan naslchilik usullariga, parrandalarning fiziologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda parrandalarni maqsadli boqishga bog'liq.

Sog'lom parrandaning belgilari: Toj- to'q qizil, ko'z- toza va yorqin, tumshuq-to'g'ri, qiyshaymagan ,burun-quruq, shilimshiqsiz, pat, parlar- toza,

yaltiroq, kana va bitlar yo‘q, oyoq tangachalari- kanalarsiz, barmoqlar- to‘g‘ri qo‘yilgan, qiyshaymagan, kloaka- toza, parazitlarsiz, atrofi fekal bilan ifloslanmagan.

Natija. Tuxum va parranda go‘шти ishlab chiqarishning o‘shishi ko‘p jihatdan yuqori mahsuldor liniyalar va krosslarni yaratish va ularni doimiy ravishda yaxshilash, shuningdek, to‘liq va muvozanatli oziqlantirish (30%) va yangi resursni joriy etishga qaratilgan seleksiya (40%) tejamkor va samarali texnologiyalar (30%). bilan belgilanadi.

Bunday holda, ayniqsa, otalik va onalik liniyalarini birlashtiruvchi maxsus loyihalash muhim ahamiyatga ega, ularning chatishtirilishi yakuniy gibridd - broyler, tuxum tug‘ayotgan makiyonlar va boshqalarda geterozisning ta‘sirini aniqlaydi.

Tuxum tug‘uvchi makiyon tovuqlarni tanlash tendensiyalari jinsiy yetuklik yoshining pasayishi va shunga mos ravishda tuxum qo‘yishning 50%, 18 haftalik tovuqlarning tirik vazni, tuxum ishlab chiqarish davomiyligining 112-haftagacha oshishi, tuxum ishlab chiqarish intensivligi, tuxum og‘irligi va ozuqa konversiyasi hisoblanadi.

Naslchilik parrandachilik zavodi tuxum yo‘nalishi tovuqlarining seleksion galasi tarkibiga seleksion o‘zak-yadro va seleksion uyaga bir liniyadan 60-100 ta yosh makiyonlar, liniyadagi va gibridd parrandalardan sinaladiganlari, yakuniy liniyalarni ko‘paytiruvchilari, ota-ona va katta ota-onalar shakllari kiradi.

Seleksion gala tovuqlari aloxida qafaslarda saqlanadi, ularning asosiy urchitish usuli sifatida –sun‘iy urug‘lantirish qo‘llaniladi.

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarning asosiy ajratib olinadigan seleksiya belgilari quyidagilardir:

Makiyon hayotining 40-, 45-, va 68- (72) haftaligidagi tuxum mahsuldorligi, tuxum tug‘ishning jadalligi, jinsiy balog‘atga yetish (tuxum tug‘ish vaqtining boshlanishi) va tuxum tug‘ishning eng cho‘qqiga chiqishi va bu cho‘qqiga chiqishning turishi davomiyligi;

6-7 kun mobaynida tugʻilgan barcha tuxumlarning ogʻirlik vazni koʻrsatkichi 30 (35) haftaligida xar bir tovuq uchun aloxida, individual tarzda va 52 haftaligida guruh boʻyicha;

Tovuq va xoʻrozlarning tirik vazni aloxida xolda 16 haftaligida , 40 (42) haftaligida esa guruh boʻyicha;

52 haftaligida tovuqlarning tirik vazni, 10 ta tuxum yetishtirish uchun sarf boʻlgan ozuqa, olingan tuxumlardan ochirilgan joʻjalar koʻrsatkichlari;

Joʻjalarning 17 (16) haftaligida saqlanib qolish koʻrsatkichlari, katta boʻlgan makiyonlarning tuxum tugʻish davrining oxirigacha saqlanish koʻrsatkichlari, tuxum koʻrsatkichlari;

Naslchilik parranda I va II reproduktorlarida makiyonlar xar yili kamida 4 marta almashtiriladi, 1 bosh yosh makiyon olish va ularni katta galaga oʻtkazish uchun 1,15–1,20 ta sutkalik makiyon joʻja , 1 bosh katta ota xoʻroz hisobidan 2,0–2,5 bosh sutkalik joʻja xoʻrozlar qoldiriladi.

Parranda reproduktorlarida urchitishning ajralmas sharti sifatida tuxumlarni alohida inkubatsiya qilish va bir kunlik joʻjalarni liniyalar va ota-onalik shakllari boʻyicha belgilash, urgʻochi va erkaklarni jinsi boʻyicha alohida boqish, sanoat parrandachiligida parrandalarni oʻz oʻzini choʻqib qoʻyish, patlarini, oyoqlarini va tuxumni choʻqish, xoʻrozlarni makiyonlarga shikast yetkazmasligi uchun 7–10 kunligida yoki 6–7 haftaligida tumshuqlarini qirqib qoʻyilishi tadbiri oʻtkaziladi.

Xoʻrozlarda 28 kunligida tojisi qirqiladi yoki oʻsi-shi toʻxtatiladi. Galani remont qiluvchi yoki toʻl-diruvchi yosh parrandalar 6 va 7 haftaligida tana tuzilishi, tirik vazni, tojisi va sirgʻasi kattaligi, oyoq va tumshuq pigmentatsiyasi koʻrsatkichi boʻyicha baholanadi va tanlanadi.

Xulosa. 15-16 haftaligida yosh parrandalar katta yoshli parrandalar saqlanadigan tovuqxonaga oʻtkazilayotganida eksterer koʻrsatkichi boʻyicha, tumshugʻi va koʻkrak toʻsh suyaklari qiyshaygan, boʻgʻimlari shishgan, oyoq panjalari qiyshiq boʻlsa, koʻzlari qisilgan va nursiz boʻlsa va orqasida bel

sohasida parlari bo‘lmaganlari, shuningdek pat va parlari xurpayib turganlari ajratilib brak qilinadi.

Go‘sh t yo‘nalishi parrandachiligida tuxum berish, tuxum mahsuldorligi ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga, mahsulot birligi hisobiga ozuqa sarfi xarajatini qoplanishi, pati yulingan go‘sh t nimtasi va tush muskullari miqdoriga e‘tibor qaratiladi.

Go‘sh t yo‘nalishi parrandachiligi seleksion guruhi liniyasida 60 ta uya bo‘lishiga erishilishi kerak.

Go‘sh t yo‘nalishi parrandachiligida tanlash - seleksiya belgilari quyidagilardir: 5 haftalik jo‘jalar tirik vazni, otalik shakl parrandalarda suyaklar mustaxkamligi, oyoq va panjalar to‘g‘riligi, 5 (6) va 17 (18) haftaligida 3-ballik shkala bo‘yicha to‘sh muskullarining chiqishi, sutkalik jo‘jalarda yelpig‘ich va qoplovchi parlari bilan tananing qoplanishi, 5(6) haftalik jo‘jalarda par va pat bilan tananing qoplanishi, tanasi pat va par bilan to‘liq qoplanmagan va to‘sh suyagi qirradi, beli qiyshiq bo‘lgan jo‘jalar brak qilinadi, jinsiy balog‘atga yetishish payti, inkubatsiyaga qo‘yiladigan tuxumlar soni, 10 ta dona tuxum va 1 kg semirish uchun ozuqa xarajati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudova, K., and A. Abduraximov. "PARRANDALARDA UCHRAYDIGAN NYUKASL KASALLIGI VA UNI OLDINI OLISH CHORALARI." *E Conference Zone*. 2022.

2. Edited by Per Jensen. "The Ethology Domestic Animals". 3rd edition. An introductory Text. Linköping Univetsity, Linköping, Sweden. 2021 Behaviour of domesticated Birds: Chickens, Turkeys and Ducks 153-167 betlar

3. Епимахова , Е. Э. Интенсивное кормление сельскохозяйственных птиц: учеб. пособие / Е. Э. Епимахова, Н. В. Самокиш, Б. Т. Абилов. – АГРУС; Ставропольский гос. аграр. ун-т, Ставрополь, 2017. – 76 с.

4. Инкубация яиц сельскохозяйственной птицы: метод. рекомендации / под общ. ред. В. И. Фисина // ВНИТИП. – Сергиев Посад, 2008. – 119 с.